



AKSIYALARNING YANGI O'ZBEKISTONDAGI ISTIQBOLLARI

Keldiyorov Shakhriyor Ilyos o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistri

Annatotsiya. Aksiyalarning turlari, baxolash va ularning o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqildi. Mamlakatda aksiyalar chiqargan sohalar tilga olindi. Qimmatli qog'ozlarga oid qonunchiligimizdagi hujjatlar ustida fikr olib borildi.

Kalit so'zlar: Aksiya, davlat, iqtisodiyot, investor, emissiya, qimmatli qog'ozlar, savdo maydonlari.

Bilamizki, Respublikamizning barcha sohaları o'zining o'sish su'ratlarini jadal davom ettirmoqda, e'tiborni birgina iqtisodiyot tarmog'iga qaratadigan bo'lsak, xalqaro moliya institutlarining qator iqtisodiy indekslarda sezilarli natija, samaradorlikni ko'rishimiz mumkin.

Erishilgan yutuqlarimiz zamirida esa oldimizga belgilab olgan oliy maqsadlarimiz yotadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmonida "milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash"¹ deb belgilangan vazifalar bajarilishi ta'minlanayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Ayniqsa, bozor munosabatlarining takomillashuvi va tezkor o'zgarishlarning hozirgi davrida aksiyadorlik jamiyatlarining samarali moliya-xo'jalik faoliyatini ular tomonidan puxta ishlab chiqilgan moliyaviy siyosati va uni amalga oshirish mexanizmisiz ta'minlab bo'lmaydi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi, PF-60-son.
www.pedagoglar.org

Bu aksiyadorlik jamiyatlarida samarali korporativ boshqaruvni tashkil etishda bugungi kunda jiddiy e'tibor qaratilayotgan muhim jihatlardan hisoblanadi.

XXI asrga kelib korporatsiyalar, aksiyadorlik jamiyatlari va banklar iqtisodiyotni rivojlantiradigan asosiy tizimlardir.

Mamlakatimizda iqtisodiyot, moliya va bank tarmoqlari doirasida qator islohatlar yangi qonun loyihalari, yangiliklar amalga oshirilmoqda, ammo mamlakatimiz iqtisodiyotini muomoliy nuqtalaridan biri hisoblanadigan fond bozori, uning savdo maydonchali bo'lib hisoblanadigan aksiya, obligatsiyalar ommabop ko'rinishga kelib ulgurgani yo'q.

Aslida qimmatli qoz'ozlar kabi tushunchalar yuqorida keltirib o'tgan iqtisodiyot, moliya va banklar bir qatorda sanab o'tishimiz lozim bo'lgan yo'nalishlardur.

Mamlakatimizda fond bozori faoliyatini, savdo maydonlarini to'g'ri tashkil etishda samarali chora tadbirlar, me'yoriy-*huquqiy* xujjatlari imzolanib amaliyotga tadbir etilayotganligi jumladan bildirgan g'oyalarni isbotlovchi O'zbekiston Respublikasining ““Qimmatli qoz'ozlar bozori to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida”² qonuni misol sifatida keltirib o'tishimiz mumkin.

Unga ko'ra Aksiyalarga doir opsiyonni chiqarish “Olish huquqini opsiyonlar beradigan muayyan turdagi aksiyalarning soni aksiyalarga doir opsiyonlar chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun hujjatlarni taqdim etish sanasidagi holatga ko'ra joylashtirilgan ushbu turdagi aksiyalarning 5 foizidan ortiq bo'lishi mumkin emas.” kabi shartlarga amal qilishi kerak.

Aksiya chiqazuvchilar aksiyalarga doir opsiyonlar aksiyadorlik jamiyatining ustav kapitali uni ta'sis etish chog'ida to'liq to'langanidan keyin joylashtirilishi mumkin bo'ladi.

² O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 03.06.2015 yildagi, O'RQ-378-son.
www.pedagoglar.org

Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan kuzatib boriladigan va xarid qilinadigan qimmatli qog'ozlar ichida keng miqyosda tarqalgan turi aksionerlik jamiyatlari tomonidan chiqariladigan aksiyalardir.

Aksiya – bu korxonaga mulkiga aksionerlarning qo'shgan xissasini tasdiqlovchi hujjat. Aksiyalar bo'yicha daromadlar dividend shaklida to'lanadi. Aksiyalar chiqarish orqali zarur bo'lgan moliyaviy mablag'lari jalb qilinadi. Aksionerlik moliyaviy mablag'lar manbalarini shakllantirishda ikki xil aksiya emissiya qilinadi: oddiy va imtiyozli aksiyalar.

Oddiy aksiya — aksionerlik jamiyatini boshqarishni huquqini beradi (aksionerlarning umumiy yig'ilishida qatnashish, dividend olish huquqi, jamiyatni likvidatsiya qilayotganda aksiyalar qiymatiga teng miqdorda korxonaga mulkini olish).

Barcha oddiy aksiyalarning nominal qiymati bir xil bo'lishi lozim. Imtiyozli aksiyalar ovoz berish huquqiga ega bo'lmaydi, lekin uning afzallik tomoni shundaki, u aksionerga oldindan ma'lum bo'lgan, qat'iy belgilangan foiz bo'yicha daromad bilan ta'minlangan bo'ladi.

Daromad hajmi aksionerlik jamiyati faoliyat natijasiga bog'liq bo'lmaydi. Aksionerlik jamiyatlari ochiq yoki yopiq turdagi jamiyatlarga bo'linadi.

Ochiq turdagi aksionerlik jamiyatlari o'z aksiyalarini barcha xohlovchilariga ham, yopiq turdagi aksionerlik jamiyatlari faqat o'z ishchilariga sotishi mumkin.

Mulkchilikning aksionerlik shaklida korxonaning xo'jalik faoliyati natijasi uchun aksionerlarning javobgarlik ma'suliyati oshadi.

Ishchilarning bo'sh pul mablag'larini aksiyalarga joylashtirishi, ularning mablag'larini inflyatsiyadan himoyalasa, boshqa tomondan ishlab chiqarish natijasi uchun ma'suliyatini oshiradi.

2023-yilda fond birja savdosi iqtisodiyotning 10 xil sektori tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshirildi.

Eng ko'p bitimlar bank va sanoat tarmoqlari emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan qayd etildi. Bank sektori emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan 229898 ta bitim tuzildi, bu birja operatsiyalari umumiy sonining 55,82 foizini

tashkil etadi.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi fond birjasidagi Top 10 ta emitent.³

№	Tarmoqlar	Bitimlar soni	Qimmatli qog'ozlar hajmi	Savdo miqdori (mlrd so'm)	Ulushi (%)
1	Banklar	229898	12037218814	971,97	35,83
2	Lizing	639	19638	13,90	0,51
3	Sanoat	36798	4987566	108,4	4,01
4	Agrosanoat sohasi	18521	151092393	597,74	22,03
5	Aloqa	20816	6068444	37,01	1,36
6	Qurilish	20085	3300979	17,76	0,65
7	Sug'urta	318819	15709897105	77,23	2,85
8	Transport	2579	555198	66,54	2,46
9	Energetika	22697	6819617	119,45	4,4
10	Boshqalar	22018	160586651	702,69	25,9
	Jami	41187	28080546405	2712,75	100

Sanoat sektorining 36798 emitentining qimmatli qog'ozlari bilan 12 ta bitim tuzildi (birja operatsiyalari umumiy sonining 8,93%). Bank sektorining qimmatli qog'ozlari birja operatsiyalari umumiy hajmining 35,83 foizini tashkil etdi. Mazkur soha emitentlari bilan tuzilgan bitimlarning umumiy hajmi 971,97 mlrd. so'mni tashkil etdi. Boshqa tarmoqlar emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bitimlar hajmi 702,69 mlrd. so'mni tashkil etdi, bu umumiy birja hajmining 25,90 foizini tashkil etdi. Agrosanoat va energetika sohalaridagi aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bitimlar mos ravishda 597,74 milliard va 119,45 milliard so'mni tashkil etdi. Bitimlarning eng kichik hajmi qurilish va lizing sohasidagi qimmatli qog'ozlar bilan mos ravishda 17,76 milliard va 13,90 milliard so'm miqdorida qayd etildi.

³ "Toshkent" Respublika fond birjasi yillik hisoboti. 2023-yil.

Qonunchiligimizda imzolangan normativ - me'yoriy hujjatlar aksiyalar savdo hajmi, umuman emitentlar uchun tor doirada erkinlarga ega ekanliklari. Ushbu tarmoq iqtisodiyotda eng muhim ro'l o'ynashi faol pozitsiyaga ega bo'lish davri yetib kelganligini anglatmoqda. Qonunlar orqali imkon qadar erkinlik berilsa, ushbu tarmoq aytish mumkin bo'lsa gullashiga guvoh bo'lamiz. Aksiyalar kompaniyaning faoliyati uchun ayniqsa, inqiroz yoqasiga kelib qolgan kompaniyalar faoliyati uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O'zini inqirozdan qutqaradi, sodda qilib aytadigan bo'lsak faoliyat yurituvchi sohasi qamrovini kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” farmonida “milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi, PF-60-son.
2. ““Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida” O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 03.06.2015 yildagi, O'RQ-378-son.
3. Mamatov B.S., Xo'jamqulov D.Yu., Nurbekov O.Sh., Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. 2014- yil. Toshkent: Iqtisod-moliya.